
MUROJAATLAR IJOBIY HAL ETILMOQDA

Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshloq tumani Xalq qabulxonasida tuman hokimi A.Djurabayevning navbatdagi qabuli o'tkazildi. Unda 30 nafar fuqarolarning murojaatlari eshitildi. Har bir murojaat mutasaddi tashkilot va korxonalar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqildi. Moddiy yordam ajratish, ishga joylashish, imtiyozli kredit olish, gaz, suv, elektr ta'minotini yaxshilash kabi 15 ta murojaat joyning o'zida ijobiy hal etildi. 2 nafar fuqaroga oziq-ovqat mahsulotlari ajratilib, qo'shimcha o'rganish, muddat talab etilgan 10 tasi nazoratga olindi. 3 ta murojaatga atroflicha tushuntirishlar berildi. Shuningdek qabul davomida, 29 nafar imkoniyati cheklangan fuqarolarning murojaatlari o'rganib chiqildi. "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi tomonidan ularga bir martalik moddiy yordam mablag'lari ajratildi.

2022-11-22 14:12:33